

Kuldasheva Gulbahor Davlyatovna*Alfraganus universiteti "Psixologiya" kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari
nomzodi*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОКАЗАНИЯ ПОМОЩИ ЖЕНЩИНАМ, ПОСТРАДАВШИМ ОТ НАСИЛИЯ, И ЭФФЕКТИВНЫЕ ПОДХОДЫ РЕАБИЛИТАЦИИ

Аннотация. В статье анализируются социально-психологические особенности оказания помощи женщинам, пострадавшим от насилия. В рамках исследования были собраны эмпирические данные с участием специалистов, изучены виды насилия и практики оказания помощи. Результаты показали широкое распространение психоэмоциональных проблем у пострадавших. Обоснована необходимость интегративного подхода в процессе реабилитации. Также выявлены факторы, влияющие на эффективность оказания помощи и уровень подготовки специалистов.

Ключевые слова и понятия: насилие, женщины, психологическая помощь, реабилитация, стресс, депрессия, социальная поддержка, гендерное равенство

ZO'RAVONLIKDAN JABR KO'RGAN XOTIN-QIZLARGA YORDAM KO'RSATISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA SAMARALI REABILITATSIYA YONDASHUVLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga yordam ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida mutaxassislar ishtirokida empirik ma'lumotlar yig'ilib, zo'ravonlik turlari va yordam ko'rsatish amaliyoti o'rganildi. Natijalar jabrlanuvchilarda psixosotsial muammolar keng tarqalganligini ko'rsatdi. Maqolada samarali rehabilitatsiya uchun integrativ yondashuvlar asoslab berilgan. Shuningdek, mutaxassislar malakasi va xizmatlar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar aniqlandi.

Tayanch so'z va tushunchalar: zo'ravonlik, xotin-qizlar, psixologik yordam, rehabilitatsiya, stress, depressiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, gender tenglik

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PROVIDING ASSISTANCE TO WOMEN AFFECTED BY VIOLENCE AND EFFECTIVE REHABILITATION APPROACHES

Annotation. The article analyzes the socio-psychological features of providing assistance to women affected by violence. Empirical data were collected with the participation of specialists, the types of violence and support practices. The results revealed a high prevalence of psycho-emotional problems among victims. The study

substantiates the need for an integrative approach to effective rehabilitation. It also identifies factors influencing the effectiveness of assistance and the level of professional competence.

Key words and concepts: violence, w, psychological support, re, stress, depression, social support, gender equality.

Kirish

Hozirgi globallashtirish sharoitida jamiyatda inson huquqlarini himoya qilish, ayniqsa xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zo'ravonlik muammosi esa bu borada eng og'ir va ko'p qirrali ijtimoiy-huquqiy hamda psixologik muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, oilaviy va gender asosidagi zo'ravonlik holatlari xotin-qizlarning nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatligiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Jumladan, 2019-yilda qabul qilingan «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi Qonun mazkur sohada asosiy huquqiy hujjat hisoblanib, xotin-qizlarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonun doirasida zo'ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish, ularga ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish mexanizmlari belgilab berilgan. [1].

Shuningdek, davlat tomonidan mazkur yo'nalishda qator qaror va dasturlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2024-yil 25 iyundagi 354-son qaroriga muvofiq, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ularni reabilitatsiya qilish va moslashtirish tizimi yanada takomillashtirildi. Bundan tashqari, so'nggi yillarda aholi o'rtasida "zo'ravonlikka toqatsizlik" tamoyilini shakllantirishga qaratilgan davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. [2].

Zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarda ko'p hollarda stress, depressiya, xavotir, ishonchsizlik, past o'zini baholash kabi psixologik holatlar kuzatiladi. Bu esa ularning ijtimoiy moslashuviga, oilaviy va shaxsiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bunday holatlarda kompleks yordam ko'rsatish, ya'ni psixologik, ijtimoiy va huquqiy qo'llab-quvvatlashni uyg'unlashtirgan holda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Biroq mazkur masalaning ijtimoiy-psixologik jihatlarini, ayniqsa milliy-madaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda chuqur tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Bu esa ilmiy izlanishlarni yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLIL

Mavzuning dolzarbligi jamiyatda oilaviy munosabatlar tizimida xotin-qizlarga nisbatan qo'llaniladigan zo'ravonlik holatlarini kompleks ravishda tahlil qilish, uning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash hamda samarali reabilitatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatishning samarali modellarini takomillashtirish zarurati ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar bilan ishlaydigan mutaxassislar yordamida mavjud holatni kompleks tahlil qilish va baholash hamda ayollarga nisbatan zo'ravonlikni keltirib chiquvchi tashqi va ichki omillarni aniqlash.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga yordam ko'rsatish muammosi keng qamrovda o'rganilgan. Xususan, L. Hayze zo'ravonlikni individual, oilaviy va ijtimoiy omillar o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida izohlab, ekologik yondashuvni ilgari surgan. L. Uolker esa zo'ravonlik qurbonlarida kuzatiladigan psixologik holatlarni tahlil qilib, "zo'ravonlik sikli" va "o'rganilgan ojizlik" nazariyalarini asoslab bergan.

Rossiya olimlari tomonidan mazkur muammo shaxs psixologiyasi

va ijtimoiy munosabatlar nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Ye.T. Sokolova tadqiqotlarida travmatik tajribalarning shaxs rivojiga ta'siri va zo'ravonlik qurbonlarida yuzaga keladigan emotsional buzilishlar tahlil qilingan. O.A. Karabanova esa oilaviy munosabatlardagi inqiroz holatlari va ularni bartaraf etishda psixologik yordamning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish va gender tenglikni ta'minlash masalalari keng yoritilgan. Xususan, Sh.M. Mirziyoyeva tashabbuslari asosida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq mahalliy ilmiy tadqiqotlarda zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga yordam ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish masalasi hali yetarlicha o'rganilmagan.

Maqolaning ilmiy mohiyati shundan iboratki, zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga yordam ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini kompleks yondashuv asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda jabrlanuvchi ayollarning psixologik holati, ularda yuzaga keladigan emotsional va shaxsiy o'zgarishlar hamda ijtimoiy muhitning ta'siri o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, maqolada zo'ravonlik qurbonlariga yordam

ko'rsatish jarayonida psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning samarali usullari ilmiy jihatdan asoslanadi. Muallif tomonidan milliy-madaniy xususiyatlarni inobatga olgan holda yordam ko'rsatishning takomillashtirilgan yondashuvlari taklif etiladi, bu esa mazkur sohadagi nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyekti. O'zbekiston Respublikasidagi 5 ta hududda oilasida zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar bilan ishlaydigan 80 ta mutaxassis va mutasaddi xodimlar hamda mahalla va reabilitatsiya markazlari.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar: jabrlanuvchilar bilan ishlaydigan mutaxassis-xodimlar hamda reabilitatsiya markazlarida faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma, suhbat, savol-javob hamda intervyudan foydalanildi. So'rov natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish: ma'lumotlar «CSPro 4.1» va «SPSS statistics-v.24» dasturlari asosida shakllantirildi va ular yakuniy jadvallar va diagrammalar ko'rinishida keltirildi.

So'rov respublikaning Jizzax, Qashqadaryo, Namangan hamda Samarqand viloyatlari va Toshkent shahrida o'tkazildi.

Tahlil va natijalar: So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va shaxsiy

salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Davlat siyosatida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash hamda oila institutini mustahkamlash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilish, sog'lom avlodni tarbiyalash masalalari ham tizimli ravishda qo'llab-quvvatlanmoqda.

Biroq, amaliy kuzatuvlar va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy munosabatlardagi kelishmovchiliklar va xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari hali ham dolzarb ijtimoiy muammo bo'lib qolmoqda. Mazkur muammoning murakkabligi uning ko'p hollarda yashirin xarakterga egaligi bilan izohlanadi. An'anaviy ijtimoiy stereotiplar, "oila sirini oshkor qilmaslik" kabi qarashlar ko'plab ayollarni zo'ravonlik holatlarini ochiq bayon qilishdan tiyilishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida, zo'ravonlikning latent shaklda saqlanib qolishiga va uning salbiy oqibatlari chuqurlashishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi bosqichda mazkur muammoga davlat va jamoat institutlari tomonidan jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Milliy qonunchilikda zo'ravonlikning barcha shakllariga nisbatan javobgarlik choralari aniq belgilab qo'yilgan bo'lib, oilada sodir etilgan zo'ravonlik ham ijtimoiy xavfli qilmish sifatida baholanadi. Bu esa jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirishga xizmat

qilmoqda. Shu bilan birga, profilaktika, erta aniqlash va reabilitatsiya choratadbirlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda.

Shunga qaramasdan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular bilan individual va manzilli ishlash, oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish jarayonida qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, psixologik yordam xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, mutaxassislar malakasining turlicha ekanligi va aholining ushbu xizmatlardan foydalanish bo'yicha xabardorligining pastligi kabi omillar mazkur sohadagi samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga yordam ko'rsatishda ilmiy asoslangan, kompleks va integrativ yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi. [3].

Mazkur yo'nalishda "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, "Xalqaro standartlar asosida oilada zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik xizmat ko'rsatishni takomillashtirish" loyihasi doirasida olib borilgan izlanishlar milliy tizimning holati, muammolari va rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Ushbu tadqiqotlar natijasida zo'ravonlik qurbonlariga

ko'rsatilayotgan yordamning institutsional va amaliy jihatlari tahlil qilindi. [4].

Psixologik nuqtayi nazardan, zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarda turli darajadagi psixoemotsional buzilishlar kuzatiladi. Ular orasida stress holati, depressiya, yuqori darajadagi xavotir, o'z-o'zini baholashning pasayishi, ijtimoiy izolyatsiya va ishonchsizlik kabi holatlar keng tarqalgan. Bu holatlar nafaqat shaxsning ichki holatiga, balki uning ijtimoiy faolligi va hayot sifatini pasaytirishga ham olib keladi. Shu bois, ularga yordam ko'rsatish jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash, travmaga yo'naltirilgan terapiya va reabilitatsiya choralari qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar zo'ravonlik muammosini kompleks va ko'p qirrali ravishda tushunishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar zo'ravonlikni faqat yakka shaxs xulq-atvori bilan emas, balki kengroq ijtimoiy va madaniy kontekstda ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga yordam ko'rsatishda integrativ va tizimli yondashuvlarni qo'llash zaruratini asoslab beradi.

Xususan, L. Hayze tomonidan taklif etilgan ekologik model zo'ravonlikni ko'p darajali tizim sifatida talqin qiladi. Ushbu modelga ko'ra, zo'ravonlikning kelib chiqishi individual xususiyatlar (shaxsning psixologik

holati, tajribasi), oilaviy muhit (munosabatlar tarzi, tarbiya), hamda ijtimoiy omillar (gender stereotiplari, madaniy meyorlar)ning o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Bu yondashuv zo'ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashishda har bir darajada ta'sir etuvchi omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

L. Uolker tomonidan ishlab chiqilgan "zo'ravonlik sikli" nazariyasi zo'ravonlikning takrorlanuvchi bosqichlardan iboratligini ko'rsatadi, ya'ni zo'ravonlik holatlari keskinlashuv, zo'ravonlik akti va "tinchlanish" bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bu siklning takrorlanishi jabrlanuvchi shaxsda psixologik bog'liqlik va chiqib ketish imkoniyatining cheklanishiga olib keladi. Shu bilan birga, "o'rganilgan o'jizlik" konsepsiyasi zo'ravonlik qurbonlarining vaqt o'tishi bilan o'zini himoya qilish qobiliyati pasayishi, o'z vaziyatini o'zgartirishga ishonchining susayishi va passiv xulq-atvor shakllanishini tushuntirib beradi.

Mazkur nazariyalar zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarning psixologik holatini chuqur anglash, ularning xulq-atvorini to'g'ri baholash va samarali psixologik yordam strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu yondashuvlar amaliyotda individual va kompleks psixoterapevtik hamda ijtimoiy yordam dasturlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Rossiya olimlari tadqiqotlarida ham zo'ravonlik qurbonlarining

psixologik holati, shaxsiy deformatsiyalari va reabilitatsiya jarayonlari chuqur va tizimli ravishda o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda zo'ravonlik inson psixikasiga ko'rsatadigan ta'sir faqat qisqa muddatli emotsional reaksiyalar bilan cheklanib qolmasdan, balki uzoq muddatli shaxsiy o'zgarishlar va ijtimoiy moslashuv muammolariga olib kelishi ta'kidlanadi. Bu esa zo'ravonlik qurbonlari bilan ishlashda kompleks psixologik yondashuvni talab etadi.

Xususan, Ye.T. Sokolova o'z tadqiqotlarida travmatik tajribalarning shaxs rivojiga ta'sirini chuqur tahlil qilib, zo'ravonlik qurbonlarida emotsional barqarorlikning buzilishi, yuqori darajadagi xavotir va ichki ziddiyatlar shakllanishini qayd etadi. Uning fikricha, bunday holatlar shaxsning o'z-o'zini anglash jarayoniga, o'z-o'zini baholashiga va atrof-muhit bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, travmatik tajriba shaxsda himoya mexanizmlarining noo'rin shakllanishiga va ijtimoiy izolyatsiyaga moyillikni kuchaytirishi mumkin.

O.A. Karabanova esa oilaviy munosabatlardagi inqiroz holatlarini tadqiq etib, zo'ravonlikka olib keluvchi psixologik va ijtimoiy omillarni tahlil qiladi. U oiladagi disfunktsional munosabatlar, kommunikatsiya muammolari va rollar nomutanosibligi zo'ravonlikning paydo bo'lishida muhim omil ekanligini asoslab beradi. Shu bilan birga, Karabanova psixologik yordamning ahamiyatini ta'kidlab,

reabilitatsiya jarayonida individual va oilaviy psixoterapiya usullarini qo'llash samaradorligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Rossiya olimlarining tadqiqotlari zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatishda psixologik diagnostika, individual yondashuv va uzoq muddatli reabilitatsiya ishlarining ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Bu yondashuvlar zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar bilan ishlashda amaliyot uchun muhim nazariy va metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan mazkur muammo asosan huquqiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan o'rganilib, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash hamda zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar keng qamrovda yoritilgan. Ilmiy ishlar va amaliy tadqiqotlarda zo'ravonlikka qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, jabrlanuvchilarni ijtimoiy himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish va davlat hamda jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa mamlakatimizda mazkur muammoga nisbatan tizimli yondashuv shakllanayotganligini ko'rsatadi. [5].

Xususan, davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar xotin-qizlarning huquqiy himoyasini mustahkamlash, ularga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha institutsional mexanizmlarni rivojlantirishga xizmat

qilmoqda. Qonunchilik bazasining takomillashtirilishi, himoya orderlari tizimining joriy etilishi, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar tarmog'ining kengaytirilishi zo'ravonlik qurbonlariga ko'rsatiladigan yordamning samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim qadamlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, "Mahalla" instituti orqali profilaktika ishlarini kuchaytirish va aholi o'rtasida huquqiy ongni yuksaltirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Biroq mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mahalliy ilmiy ishlarda zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga yordam ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik jihatlari yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Ayniqsa, milliy-madaniy qadriyatlar, an'anaviy gender rollari va ijtimoiy stereotiplarning jabrlanuvchi ayollarning xulq-atvori, qaror qabul qilishi va yordamga murojaat qilish jarayoniga ta'siri masalalari kompleks tadqiq etilmagan. Bu holat esa psixologik yordam ko'rsatishda universal yondashuvlar emas, balki milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda moslashtirilgan, individual va integrativ modellarni ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.


Shu nuqtayi nazardan, zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga yordam ko'rsatishda ijtimoiy-psixologik omillarni chuqur tahlil qilish, milliy muhitga mos psixokorreksion va reabilitatsion dasturlarni ishlab chiqish hamda mutaxassislar tayyorgarligini takomillashtirish bugungi kunda

dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Natijalar va amaliy misollar. Savolnomada O'zbekistonning 5 ta hududining reabilitatsiya markazlarida

faoliyat yuritayotgan 80 nafar respondentlar ishtirok etishdi.

1-rasm. Tadqiqot ishtirokchilarining hududlar kesimida taqsimoti



Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, Jizzax viloyatidan 9 ta, Qashqadaryo viloyatidan 38 ta, Namangan viloyatidan 8 ta, Samarqand viloyatidan 20 ta, Toshkent shahri 5 ta mutaxassis xodimlar ishtirok etishdi.

Ulardan "Markazga zo'ravonlikning qaysi turlaridan ko'proq jabr ko'rgan shaxslarni qabul qilasiz?" – degan savolga quyidagi diagrammada ko'rsatilgan javoblar olindi.

Savolnoma natijalariga ko'ra jismoniy zo'ravonlik, ya'ni kaltaklanib, kuch ishlatishdan jabrlanganlar 67,5 % ni tashkil qilgan bo'lsa iqtisodiy zo'ravonlikdan 52,5 %, psixologik zo'ravonlikdan 73,8 %, jinsiy zo'ravonlikka majburlangan esa 36,3 % ni tashkil qilishdi. Bundan ko'rinib turibdiki xotin-qizlarimiz ko'proq

psixologik zo'ravonlikdan, kaltaklanishlardan va jinsiy zo'ravonlikka uchraganliklari tasdiqlandi.

"Siz jabrlanuvchiga bevosita yordam ko'rsatasizmi yoki boshqa muassasalarga yuborasizmi?" - degan savoliga umumiy 5 ta hududiy ko'rsatkichlardan ma'lum bo'lishicha, asosan jabrlanuvchilarga markaz xodimlari tomonidan yordam ko'rsatilishi (83,8%), tuman (shahar) hokimliklariga yuborilishi (76,3%), mahalla fuqarolar yig'inlariga jo'natilishi (63,8%) muammoni hal qilishga taalluqli tashkilotlarga yuborilishi (50,0%) aniqlandi. Bu masala yuzasidan Toshkent shahri, Jizzax va Samarqand viloyatlarining reabilitatsiya markazlarining xodimlari tomonidan jabrlanuvchilarga 100 % o'zlari yordam ko'rsatib

kelayotganliklari va faqat ayrim hollardagina tuman (shahar) hokimliklariga (5-11%) hamda tegishli tashkilotlarga yuborishlari (11-40%) tasdiqlandi.

“Zo‘ravonlik qurbonlariga xizmat ko‘rsatish yuzasidan takliflaringiz?” savoliga 68,8 % ishtirokchilar malaka oshirish kurslarini tashkil etishni, 41,3% boshqa viloyat yoki tuman tajribalarini o‘rganishni, 53,8% xorijiy tajribani o‘rganish (videokonferensiya, Zoom orqali seminar), 52,0% zo‘ravonlik jabrdiydalari muammolarining yechimini topishda respublikadagi kuchli mutaxassislarini jalb etishda videoaloqa tizimini tashkillashtirishni taklif qilishgan bo‘lsa, ayrimlari 3,8% ushbu masala yuzasidan nevrolog, psixolog, ijtimoiy xodim shtati, o‘z malaka va tajribalarini oshirishlari kerakligi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun kasbga yo‘naltirish zarurligi hamda 1,3% sog‘liqlarini tiklashga yordam berish, reabilitatsiya markazidagi xizmatlarni ko‘paytirish va kelin-kuyov kurslarini tashkil qilish zaruratini taklif sifatida berishgan.

Tadqiqotda o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra hozirgi kunda respublikamiz miqyosida joylashgan reabilitatsiya markazlariga murojat qilgan, xotin-qizlarimiz asosan psixologik zo‘ravonlik (73,8 %), jismoniy zo‘ravonlik (67,5%), iqtisodiy zo‘ravonlik (52,5%), jinsiy zo‘ravonlikdan (36,3%) jabrlanganlar uchraganliklari tasdiqlandi. Jabrlanuvchilarga asosan markaz

xodimlari tomonidan yordam ko‘rsatilishi (83,8%), tuman (shahar) hokimliklariga yuborilishi (76,3%), mahalla fuqarolar yig‘inlariga jo‘natilishi(63,8%) muammoni hal qilishga taalluqli tashkilotlarga yuborilishi (50%) aniqlandi. Bu masala yuzasidan Toshkent shahri, Jizzax va Samarqand viloyatlarining reabilitatsiya markazlarining xodimlari tomonidan jabrlanuvchilarga 100 % o‘zlari yordam ko‘rsatib kelayotganliklari va faqat ayrim hollardagina tuman (shahar) hokimliklariga (5-11%) hamda tegishli tashkilotlarga yuborishlari (11-40%) aniqlandi. Ushbu xizmatlarni ko‘rsatish uchun mutaxassislar yetarli emasligi (71,3-78,8%) va shuning uchun kerakli mutaxassislar jalb etilishi (53,8%) aniqlandi.

Shu bilan bir qatorda zo‘ravonlik jabrdiydalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlarning malakasi Jizzax (100%), Qashqadaryo (92,1%) va Namangan viloyatlarida (87,5%) yetarli daraja ekanligi, lekin Samarqand viloyati (60%) va Toshkent shahri (40%) yuqori talabga javob bermasliklari haqida ma‘lum qilindi. Bu ko‘rsatkich 5 ta hudud orasida ko‘rib chiqilganda zo‘ravonlik jabrdiydalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlarning malakasi yuqoriligi deb 81,3% respondent ko‘rsatgan bo‘lsa, ularning 10% o‘rta malakaga ega ekanliklarini ma‘lum qilishdi. Bu holat reabilitatsiya markazlari mutaxassislari malakasini oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

Markazdan chiqib ketgandan keyin ham zoʻravonlik jabrdiydasining hayoti kuzatuv ostida ekanlik (83,8%) darajasi qoniqarli ekanligi ham aniqlanildi. Lekin bu boradagi kuzatuv ishlarini yanada jadallashtirish va muntazam ravishda amalga oshirib turish bilan ziddiyatlarni bartaraf etishda va oʻz navbatida zoʻravon shaxslarni ham tartibga solib turishda oʻz samarasini bermay qolmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari zoʻravonlikdan jabr koʻrgan xotin-qizlarga yordam koʻrsatish tizimini takomillashtirishda kompleks, integrativ va ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari va xulosalarga tayangan holda, zoʻravonlikdan jabr koʻrgan xotin-qizlarga yordam koʻrsatish tizimini takomillashtirish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. “Mutaxassislar malakasini oshirish tizimini kuchaytirish”. – Reabilitatsiya markazlari, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslari, treninglar va superviziya dasturlarini joriy etish zarur. Ayniqsa, travmaga yoʻnaltirilgan psixoterapiya, krizis-intervensiya va gender sezgir yondashuvlar boʻyicha oʻquv dasturlarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

2. “Kompleks va integrativ yordam modelini joriy etish”. –

Zoʻravonlik qurbonlariga psixologik, huquqiy, tibbiy va ijtimoiy yordamni uygʻunlashtirgan “keys-menejment” asosidagi yagona tizimni joriy etish tavsiya etiladi. Bu esa jabrlanuvchi bilan ishlashda uzviylik va samaradorlikni taʼminlaydi.

3. “Mutaxassislar tarkibini kengaytirish”. – Reabilitatsiya markazlarida psixolog, huquqshunos, ijtimoiy xodim, tibbiyot mutaxassisi va zarur hollarda diniy maslahatchilardan iborat multidissiplinar jamoani shakllantirish lozim. Bu zoʻravonlik qurbonlariga har tomonlama yordam koʻrsatish imkonini beradi.

4. “Hududlararo va xalqaro tajribani joriy etish”. – Ilgʻor mahalliy va xorijiy tajribalarni oʻrganish, ularni milliy sharoitga moslashtirish maqsadida onlayn seminarlar (Zoom, videokonferensiyalar), stajirovkalar va tajriba almashish dasturlarini tashkil etish zarur.

5. “Psixologik xizmatlardan foydalanish boʻyicha aholi xabardorligini oshirish”. – Aholi oʻrtasida zoʻravonlikning salbiy oqibatlari, yordam olish imkoniyatlari va huquqiy himoya mexanizmlari haqida targʻibot ishlarini kuchaytirish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

6. “Jabrlanuvchilarni kuzatuv va reabilitatsiya tizimini takomillashtirish”. – Reabilitatsiya markazidan chiqqan xotin-qizlarning keyingi hayotini muntazam monitoring qilish, ularga psixologik va ijtimoiy qoʻllab-

quvvatlashni davom ettirish uchun individual kuzatuv dasturlarini ishlab chiqish zarur. – Zoʻravonlik qurbonlariga masofaviy yordam koʻrsatish (onlayn konsultatsiyalar), mutaxassislar oʻrtasida tezkor aloqa oʻrnatish va maslahat berish uchun yagona elektron platforma yaratish tavsiya etiladi.

8. “Profilaktik ishlarni kuchaytirish” – Oilalarda sogʻlom psixologik muhitni shakllantirish, yoshlar va ota-onalar uchun psixologik

savodxonlikni oshirishga qaratilgan dasturlar (seminarlar, treninglar, “kelin-kuyov maktabi”)ni tashkil etish zoʻravonlikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

9. “Kasbiy yoʻnaltirish va ijtimoiy moslashuvni qoʻllab-quvvatlash” – Zoʻravonlikdan jabr koʻrgan xotin-qizlarni kasbga yoʻnaltirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini taʼminlashga qaratilgan taʼlim va ish bilan taʼminlash dasturlarini joriy etish zarur.

Adabiyotlar roʻyhati:

1. Oʻzbekiston Respublikasining «Xotin-qizlarni tazyiq va zoʻravonlikdan himoya qilish toʻgʻrisida»gi Qonuni // Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi. – 2019. – 2 sentabr. – № ZRU-561. – B. 1–12.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25 iyundagi 354-son qarori «Tazyiq va zoʻravonlikdan jabr koʻrgan xotin-qizlarga ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida» // Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi (Lex.uz). – 2024. – B. 1–8.

3. Shamsiev Oʻ.B. Oilaviy xolding-bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi

4. Mavlonov, D. "Suzish sporti bilan shug'ullanuvchi yosh sportchilar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik tahlili." *Uzbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyotuyzunligi* (2021): 398-401.

5. Bilolova, Z. B. (2026). The role of cognitive psychotherapy in stabilizing marital relationships and providing psychological services to couples. *World Bulletin of Education and Learning*, 2(2), 83-88.